

QO'QON DAVLAT
PEDAGOGIKA INSTITUTI
ILMIY XABARLARI
(2025-yil 2-son)



PEDAGOGIKA
PEDAGOGY

OLIV TA'LIM TALABALARIGA AXBOROT-TA'LIM MUHITINI YARATISHNING IJTIMOIV ZARURIYATI

Ismoilov Islomjon Ilhomjon o'g'li

Namangan pedagogika instituti mustaqil izlanuvchisi

islomjonismoilov660@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada oliy ta'lim tizimini yangi bosqichda jahon andozalariga mos ravishda tashkil etish, axborot xizmati tizimini rivojlantirishning ahamiyatini, uning o'quv-tarbiya jarayoni samaradorligini oshirish. Madaniy-ma'rifiy, ijodkorlik masalalarini yechish, yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash bilan bog'liq barcha tashkiliy-pedagogik, psixologik, iqtisodiy yo'nalishlardagi faoliyatlarini axborot xizmatlari va ta'lim resurslariga bo'lgan ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan ma'lumotlarni uzatish vositalari, axborot manbalari, o'zaro ta'sir protokollari, dasturiy ta'minot va tashkiliy-uslubiy ta'minotning tizimli ravishda tashkil etilishi to'g'risida bayon etilgan.

Kalit so'zlar: axborot ta'lim muhiti, talabalar, ta'lim resurslari, axborot xizmati, o'quv tarbiya jarayoni.

НЕОБХОДИМОСТЬ СОЗДАНИЯ ИНФОРМАЦИОННО- ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ СРЕДЫ ДЛЯ СТУДЕНТОВ ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ

Аннотация: В статье описывается важность создания системы высшего образования в новом ключе в соответствии с мировыми стандартами, развития системы службы информации, ее эффективности в учебно-воспитательном процессе. Решает культурно-просветительские, творческие вопросы, готовит высококвалифицированных специалистов, объясняет все организационно-педагогические, психологические, экономические проблемы современности, создает средства передачи информации, источники новостей, протоколы взаимодействия, инструктивный и организационно-служебный обеспечение.

Ключевые слова: информационная образовательная среда, студенты, учебные ресурсы, информационная служба, учебный процесс.

THE NECESSITY OF BUILDING AN INFORMATION AND EDUCATIONAL CENTER FOR STUDENTS OF HIGHER EDUCATION

Abstract: The article describes the importance of creating a higher education system in a new way in accordance with world standards, developing the information service system, its effectiveness in the educational process. Solves cultural, educational, creative issues, prepares

highly qualified specialists, explains all organizational, pedagogical, psychological, economic problems of the present, creates means of information transmission, news sources, protocols of interaction, instructional and organizational and service support.

Key words: information education environment, students, learning resources, information service, and the learning process.

Kirish. Mamlakatimizda zamon talablari asosida ta'lim jarayonini tashkil etish, jumladan, oliy ta'lim tizimida axborot kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish orqali yuqori malakali kadrlar tayyorlashga alohida e'tibor qaratilmoqda. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasida "Uzluksiz ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, sifatli ta'lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga muvofiq yuqori malakali kadrlar tayyorlash siyosatini davom ettirish" [1].. muhim ustuvor vazifa sifatida belgilangan.

Mamlakatimiz ta'lim tizimi oldida, xususan oliy ta'lim tizimini yangi bosqichda jahon andozalariga mos ravishda tashkil etish, ta'lim jarayonining ilmiy-nazariy, ilmiy-metodik muammolarini hal qilish, qolaversa, talabalarni amaliy-kasbiy faoliyatda muvaffaqiyat bilan ishlay oladigan darajada tayyorlashdek vazifa turibdi.

Ta'lim tizimida ham boshqa sohalaridagi kabi axborot xizmati tizimini rivojlantirishning ahamiyatini, uning o'quv-tarbiya jarayoni samaradorligini oshirishga bevosita taalluqli ekanligi bilan izohlash o'rinli. Ta'lim tizimining qaysi turi va qaysi jabhasi bo'lmasin axborot xizmati va ta'minoti talab darajasida bo'lmasa, u albatta o'quv-tarbiya jarayoniga salbiy ta'sir ko'rsatib, ta'lim sifatining pasayib ketishiga olib keladi. Bu o'z navbatida axborot ta'minoti optimallashtirilganligining ham buzilishiga sabab bo'ladi. Natijada u ta'lim tizimidagi o'quv-tarbiya, madaniy-ma'rifiy, ijodkorlik masalalarini yechish, yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash bilan bog'liq barcha tashkiliy-pedagogik, psixologik, iqtisodiy yo'nalishlardagi faoliyatlarining izdan chiqishiga olib keladi. Shu ma'noda, ta'lim tizimida axborot tizimi va ta'minotining optimal variantini ilmiy-nazariy asoslash bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri bo'lib hisoblanadi [2].

Axborot-ta'lim muhiti – bu foydalanuvchilarning axborot xizmatlari va ta'lim resurslariga bo'lgan ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan ma'lumotlar uzatish vositalari, axborot manbalari, o'zaro ta'sir protokollari, dasturiy ta'minot va tashkiliy-uslubiy ta'minotning tizimli ravishda tashkil etilgan to'plamidir [3]. Shuningdek, axborot-ta'lim muhitini an'anaviy va elektron ommaviy axborot vositalari, o'zaro aloqa qilishning kompyuter va telekommunikatsion texnologiyalari, shu jumladan virtual kutubxonalar, elektron ma'lumotlar bazalari, o'quv-uslubiy majmualar va kengaytirilgan didaktik apparatlar to'g'risidagi ma'lumotlarni birlashtirgan yagona axborot-ta'lim makoni deb tushunish maqsadga muvofiqdir.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. XX asrning o'rtalaridan, ya'ni insoniyat jamiyati yangi davrga, yangi yuqori texnologiyalar, sun'iy intellekt va kompyuterlar

davriga kirganidan boshlab, jamiyat, fan va ta'limni umumiy "axborotlashtirish" boshlandi. Ayni tushuncha butun jamiyat va har bir inson faoliyatining barcha sohalarida keng qo'llaniladigan atamalardan biriga aylanmoqda.

Bugungi kunda jamiyatning rivojlanishi hozirgi bosqichi qator o'ziga xos xususiyatlari bilan xarakterlanadi. Bunday xususiyatlar qatoriga aqliy mehnat ahamiyatining ortishi, global miqyosdagi axborot resurslaridan foydalanishga yo'nalganlik, hamkorlikda ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarish hamda yagona loyiha ustida ishlash uchun mutaxassislar va ijodiy jamoalar o'rtasida tez-tez muloqot o'rnatish, axborot almashish ehtiyoji, fan, texnika, ta'limni qamrab oluvchi jarayonlarning integrativ xarakteri va boshqalarni kiritish mumkin.

Rivojlanayotgan zamonda sotsiuning bunday o'ziga xos xususiyatlari jamiyatni axborotlashtirish jarayoni bilan uzviy bog'liq. Axborot muhiti, texnologiyalari inson faoliyatining barcha jabhalarida, shu jumladan ta'lim tizimida ham keng qo'llanilmoqda. Zamonaviy ta'limni axborot texnologiyalarisiz tasavvur etib bo'lmaydi. Chunki ular ta'lim jarayonida axborotlarni uzatish, qayta ishlash, tahlil qilish hamda zaruriy ma'lumotlarga tezkor ega bo'lish imkoniyatini kengaytiradi.

Ta'lim jarayonida zamonaviy axborot va telekommunikatsiya vositalaridan foydalanish borasida ta'lim muassasalarining Internet tarmog'iga ulanishi va elektron aloqalar bilan ta'minlanishiga e'tibor kuchaydi. Bundan tashqari, barcha ta'lim muassasalari axborotga bo'lgan talab-ehtiyojlarini har tomonlama qondirish uchun kerakli shart-sharoitlarni yaratish vazifasi bajarilmoqda.

Bularning barchasi Respublika ta'lim muassasalarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish, jumladan, masofaviy ta'limni joriy etish, elektronlashtirilgan forum, videokonferensiyalar o'tkazish, elektron darslik hamda o'quv qo'llanmalar yaratish va ularni ta'lim jarayonida qo'llashga qaratilgan tadbirlardir. Umuman, axborot-kommunikatsiya, kompyuter texnologiyalarining paydo bo'lishi va takomillashishi jamiyatning axborotni tezkor va xatosiz uzatish, qayta ishlash, saqlashga bo'lgan ehtiyojlari bilan bog'liq bo'lib, shu bilan birgalikda mutaxassisga yanada asosli va to'g'ri qarorlar qabul qilib, atrof-muhitdagi real voqelik shart-sharoitlariga o'z vaqtida moslasha olishlariga qilishga imkon beradi

Tahlil va natijalar. Oliy ta'lim muassasalarida axborot ta'lim muhitini yaratish va o'quv jarayonida axborot texnologiyalarini qo'llashning ilmiy metodik asoslarini ishlab chiqish, uni amaliyotga joriy etish o'qituvchidan ushbu soha bo'yicha bir necha amaliy kompetensiyalarni egallashni talab etadi. Zero, ilm fan rivojlanishi natijasida barcha yo'nalishlar kabi ta'lim jarayonini ham axborot muhitisiz tasavvur etib bo'lmaydi. Respublikamizda u borada amalga oshirilayotgan ishlar zamonaviy ta'limning yangi paradigmalari va rivojlanish tendensiyalarini aniqlash va kasbiy faoliyatda axborot muhitidan foydalanishning istiqbolli yo'nalishlarini belgilashga qaratilgan qarorlar ham shular jumlasidan hisoblanadi.

Ta'lim jarayonida axborot muhitini yaratish va ulardan oqilona foydalanish masalalari yoritilganda, birinchi navbatda, unda qo'llaniladigan barcha axborot vositalar kabi

kompyuterlarni o‘quv faoliyatining vositasida sifatida qarash yoki kompyuterdan o‘rganish ob’ekti sifatida foydalanish masalasini aniqlab olish zarurati paydo bo‘ladi.

Ta’lim jarayonida, xususan oliy ta’lim muassasalarida axborot muhitidan foydalanishda talabalarning fan mavzulariga oid bilim, ko‘nikma va malakalarini shakllantirishda foydalaniladigan vositalar sifatida foydalanish mumkin.


Jamiyatdagi o‘zgarishlar ta’lim jarayonida ham jiddiy o‘zgarishlarni talab qiladi va bugungi kunda dunyod miqyosida ta’limni axborotlashtirish orqali sifatli ta’lim olish majburiy mezon va shartiga aylanib bormoqda. Jahon komp’yuter tarmoqlari, internet, axborot qidirish, elektron pochta, chat, videokonferensiyalar, elektron darsliklar, elektron kutubxonalar va boshqalar barcha turdagi kommunikatsiya va muhim ma’lumotlarni olishning tezkor metodi sifatida faol foydalanilmoqda [4]. Hozirgi vaqtda jahon miqyosida "ochiq" ta’lim, uzluksiz o‘qish ta’lim tushunchasi paydo bo‘ldi. Buning asosiy sababi o‘quv jarayonini tubdan o‘zgartirishga sharoit tug‘dirgan yangi axborot texnologiyalaridan foydalanish, xususan, jamiyatdagi o‘zgarishlarga tez moslashadigan va munosabat bildiradigan tizimni yaratish va rivojlantirish imkoniyatining yuzaga kelishidir.

Oliy ta’lim muassasalarida 60720700- Yengil sanoat muhandisligi ta’lim yo‘nalishida boshqa ta’lim yo‘nalishlari kabi bir necha umumkasbiy va maxsus fanlar o‘qitilib, ular bo‘lajak mutaxassislarning kasbiy tayyorgarligini shakllantirishda muhim o‘rin tutadi.

“Texnik tizimlarda axborot texnologiyalari” fanini o‘qitishdan maqsad – talabalarda fani talabalarni nazariy bilimlar, amaliy ko‘nikmalar, mamlakatimizda bo‘layotgan ijtimoiy-siyosiy va demokratik o‘zgarishlar, axborot texnologiyalarining rivojlanishi va boshqa sohalaridagi islohotlarning ustuvor masalalar, hamda fan va texnologiyalarning shakllantirish vazifalarini bajaradibo‘yicha ta’lim yo‘nalishi profiliga mos bilim, ko‘nikma va malaka shakllantirishdan iborat.

Fan bo‘yicha talabalarning bilim, ko‘nikma va malakalariga quyidagi talablar qo‘yiladi.

Talaba (1-rasm):



1-rasm. Bo‘lajak muhandis-texnolog “Texnik tizimlarda axborot texnologiyalari” fani o‘zlashtirishda egallashi kerak bo‘lgan talablar

-Kompyuter texnik ta‘minoti va ularning ishlash prinsiplari, kompyuter amaliy va dasturiy ta‘minoti, axborot texnologiyalari asoslari haqida tasavvurga ega bo‘lishi;

- HTML tili va unda Veb sahifa yaratabilishi, kompyuter grafikasi dasturlarida grafik va rasmlarni qayta ishlashni, oddiy hisoblashlarni kompyuterda amalda bajara olishni, amaliy masalalarni Excel elektron jadval protsessorida va Mathcadda yechishni bilishi va ulardan foydalana olishi;

-Zamonaviy axborot texnologiyalari tizimlarida ishlay bilish, internet va zamonaviy telekommunikatsiya vositalaridan foydalanish, internet va uning qidiruv tizimlaridan foydalanish, veb texnologiyalar va ularda veb sahifalar yaratish, zamonaviy veb texnologiyalari vositalari yordamida veb sahifalar yaratish o‘rganishdan iborat.

Ushbu maqsadga erishish uchun fan talabalarni nazariy bilimlar, amaliy ko‘nikmalar, jarayonlarga uslubiy yondashuv va ilmiy dunyoqarashini shakllantirish vazifalarini bajaradi.uchun eng samarador usullarni qo‘llashga o‘rgatishdan iboratdir.

Xulosa Yuqoridagi ko‘nikmalarni o‘zlashtirishda mashg‘ulotlar davomida pedagogik dasturiy vositalardan foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Pedagogik dasturiy vositalar – kompyuter texnologiyalari yordamida o‘quv jarayonini qisman yoki to‘liq avtomatlashtirish uchun mo‘ljallangan didaktik vosita hisoblanadi. Ular ta‘lim jarayonini samaradorligini oshirishning istiqbolli shakllaridan biri hisoblanib, zamonaviy texnologiyalarning o‘qitish vositasi sifatida ishlatiladi. Pedagogik dasturiy vositalarga o‘rgatuvchi dasturlar, test dasturlari, mashq qildirgichlar hamda virtual dasturlarni kiritish mumkin.O‘rgatuvchi dasturlar - talabalarning bilim darajasi va qiziqishlaridan kelib chiqib yangi bilimlarni o‘zlashtirishga yo‘naltiradi;

Test dasturlari - egallangan bilim, malaka va ko‘nikmalarni tekshirish yoki baholash maqsadlarida qo‘llaniladi;

Mashq qildirgichlar - avval o‘zlashtirilgan o‘quv materialini takrorlash va mustahkamlashga xizmat qiladi;

Virtual dasturlar - o‘qituvchi ishtirokidagi virtual o‘quv muhitini shakllantiruvchi dasturlar.

“Texnik tizimlarda axborot texnologiyalari” fanini o‘qitishda o‘rgatuvchi dasturlardan foydalanish talabalarning kelgusi faoliyatida duch keladigan kasbiy muammolarni yengib o‘tish va xulosalar qilishda muhim o‘rin tutadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YHATI:

1. O‘zbekiston Respublikasining qonuni “Axborotlashtirish to‘g‘risida” Toshkent., 2003. 11- dekabr, 560-II son.

2. О.Х.Турақулов. Ахборотлаштирилган таълим муҳитида кичик мутахассислар тайёрлашнинг илмий-методик таъминотини такомиллаштириш Педагогика фанлари доктори дисс.....20 бет]

3. Информационно-образовательная среда. [http:// dzschool18.ru/index.php?option=com_content&view=category&id=35&layout=blog&Itemid=20](http://dzschool18.ru/index.php?option=com_content&view=category&id=35&layout=blog&Itemid=20). Электрон манба. 2020 йил 1 июнда мурожаат этилган. Таржима муаллиф томонидан бажарилган.

4. Қосимов С.С. Ахборот технологиялари. Ўқув қўлланма. Тошкент., 2006. 370 бет.